

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL


9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA’SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA’SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN’IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUV LAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIY TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIY XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUV LARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIV LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUV LAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzбек Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich

Namangan davlat texnika universiteti
Menejment kafedrası katta o‘qituvchisi,
Tel: +998982712989

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalarining iqtisodiy mazmuni, ularning tarkibiy tuzilishi hamda ishlab chiqarish faoliyatiga ta’sir etish mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Investitsiya tushunchasiga oid turli nazariy qarashlar chuqur o‘rganilib, ularning zamonaviy iqtisodiy sharoitdagi o‘rni va ahamiyati qayta ko‘rib chiqilgan. Maqolada ishlab chiqarish investitsiyalari nafaqat iqtisodiy o‘sish va texnologik yangilanishning asosiy drayveri, balki korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik resurs sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, investitsiya samaradorligini baholashning asosiy mezon va indikatorlari (NPV, IRR, ROI va boshqalar) tahlil qilinib, ularni amaliyotda samarali qo‘llash bo‘yicha tegishli tavsiyalar berilgan. Maqolada, shuningdek, ishlab chiqarish investitsiyalarini boshqarishda tizimli yondashuv, dinamik modellashirish va institutsional omillarni hisobga olishning dolzarbligi asoslab berilgan. Ilmiy-nazariy tahlillar asosida investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ishlab chiqarish investitsiyalari, sanoat korxonasi, investitsiya siyosati, iqtisodiy samaradorlik, boshqaruv modeli.

Аннотация

В статье дан научный анализ экономического содержания производственных инвестиций на промышленных предприятиях, их структурной структуры и механизмов их влияния на производственную деятельность. Автор глубоко анализирует различные теоретические взгляды на понятие инвестиций и переосмысливает их роль и значение в современных экономических условиях. В статье производственные инвестиции рассматриваются не только как ключевой драйвер экономического роста и технологических инноваций, но и как стратегический ресурс, обеспечивающий конкурентоспособность предприятия. Также были проанализированы основные критерии и показатели оценки эффективности инвестиций (NPV, IRR, ROI и др.) и даны рекомендации по их эффективному применению на практике. В статье также обосновывается актуальность системного подхода, динамического моделирования и учета институциональных факторов при управлении производственными инвестициями. На основе научно-теоретического анализа разработаны предложения по повышению эффективности инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: производственные инвестиции, промышленное предприятие, инвестиционная политика, экономическая эффективность, модель управления.

Abstract

This article analyzes the economic content of production investments in industrial enterprises, their structural structure and mechanisms of influence on production activities on a scientific basis. The author, having thoroughly studied various theoretical views on the concept of investment, reconsiders their role and significance in modern economic conditions. The article considers production investments not only as the main driver of economic growth and technological innovation, but also as a strategic resource that ensures the competitiveness of the enterprise. The main criteria and indicators for assessing investment efficiency (NPV, IRR, ROI, etc.) are also analyzed and recommendations are given for their effective application in practice. The article also substantiates the relevance of a systematic approach to managing production investments, dynamic modeling and taking into account institutional factors. Based on scientific and theoretical analyses, proposals are developed to increase the efficiency of investment activities.

Keywords: production investments, industrial enterprise, investment policy, economic efficiency, management model.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi, erkin bozor munosabatlarning keng joriy etilishi va xususiy sektor faolligini oshirish bo'yicha tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash va hududiy ishlab chiqarish salohiyatini to'liq ishga solishga qaratilgan davlat siyosati yangi bosqichga ko'tarildi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar miqdori va ularni boshqarish samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Bu esa ishlab chiqarish investitsiyalarini strategik va tizimli boshqarish, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ¹tasdiqlangan doirasida sanoat tarmoqlariga yo'naltiriladigan kapital qo'yilmalarning sifatini oshirish va investitsion loyihalarni baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari alohida e'tiborga olingan. Bu holat ilmiy asoslangan investitsiya boshqaruvi mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Namangan viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyat sanoati tarkibida yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

chiqarish, kimyo va farmatsevtika yo‘nalishlarida salmoqli o‘shish kuzatilmoqda. Biroq mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining to‘liq ishga solinmasligi, investitsiyalarning noto‘g‘ri rejalashtirilishi, texnik-iqtisodiy asoslarning sustligi hamda boshqaruvdagi bo‘shliqlar ko‘plab sanoat korxonalarining past rentabellikda faoliyat yuritishiga sabab bo‘lmoqda.

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishda zamonaviy yondashuvlardan, iqtisodiy samaradorlik indikatorlariga asoslangan modellar va monitoring tizimlaridan foydalanish dolzarb vazifaga aylangan. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), lizing asosida modernizatsiya, eksportga yo‘naltirilgan investitsiyalar uchun moliyaviy rag‘batlar mexanizmlarining keng joriy etilishi sanoat sohasida investitsiya boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shu bois, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalarini boshqarish samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy o‘shishning asosi, balki hududlar bo‘yicha investitsion nomutanosibliklarni kamaytirish, barqaror bandlikni ta‘minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun ham muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot Namangan viloyatidagi sanoat korxonalarining amaliy tajribasi asosida ishlab chiqarish investitsiyalarini boshqarish mexanizmlarini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarish investitsiyalari masalasi iqtisodiy nazariyada eng muhim va dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu boradagi tadqiqotlar asosan investitsiyaning mazmuni, tasnifi, ularning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri, boshqaruv mexanizmlari hamda baholash usullariga qaratilgan.

Investitsiya tushunchasiga klassik yondashuvlar qatorida J.M. Keynes o‘zining “Umumiy nazariya” asarida investitsiyani “kapitalning o‘shishini ta‘minlovchi vosita” sifatida tariflab, uni jamg‘arma bilan bog‘liq tushuncha deb qaraydi [1]. Shuningdek, iqtisodiy o‘shish nazariyasida R. Harrod va E. Domar modellari ishlab chiqarish salohiyati bilan investitsiyalar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni asoslab bergan [2].

Zamonaviy yondashuvlarda esa investitsiyalar faqat moddiy aktivlar bilan cheklanmasdan, bilim, texnologiya, innovatsiya va inson kapitali kabi omillarni ham o‘z ichiga olishi zarurligi ta‘kidlanadi. Masalan, P. Drucker investitsiyani “korxonaning strategik ustunligini mustahkamlovchi vosita” sifatida ta‘riflaydi [3]. D. North esa institutsional muhit bilan investitsion qarorlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka alohida e‘tibor qaratadi [4].

O‘zbekiston olimlari orasida ham ushbu yo‘nalishda samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Q.X. Abdurahmonov sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini tarmoq va hudud kontekstida baholash mexanizmlarini taklif qilgan [5]. S.S. Vahobov va Sh. Ziyadullayev esa ishlab chiqarish investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatkichlar tizimi asosida baholash masalasini asoslab bergan [6].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, investitsiya qarorlarida faqat moliyaviy mezonlar emas, balki ijtimoiy, ekologik va institutsional omillarni ham hisobga olish muhimdir. Masalan, J. Dunning tomonidan taklif etilgan "ekletik paradigm" modeli transmilliy kompaniyalar uchun investitsiya motivlari — egalik (ownership), joylashuv (location) va ichki integratsiya (internalization) kabi omillar muhimligini ko'rsatadi [8].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida O. To'ychiyev sanoat investitsiyalarini hududiy jihatdan tahlil qilish indikatorlarini ishlab chiqqan bo'lsa, A. Tadjibayev investitsion risklar va ularni minimallashtirish vositalarini chuqur o'rgangan [9;10]. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya boshqaruvini rivojlantirish bo'yicha ham faol ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Ulug'bek Xolmırzayev bu yo'nalishda konseptual yondashuvlarni taklif etgan [11].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish investitsiyalarining iqtisodiy mohiyati kompleks yondashuvni talab etadi. Ularni baholashda nafaqat rentabellik va daromadlilik, balki barqarorlik, tarmoq salohiyati va texnologik tayyorgarlik darajasi kabi ko'rsatkichlar ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli, investitsiyalarni samarali boshqarish uchun zamonaviy metodologiyalarni ishlab chiqish va ularni milliy amaliyotga moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir nechta ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik negizini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes subyektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Shuningdek, quyidagi uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: tizimli tahlil, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik tahlil hamda ekspert baholash usuli. Amaliy qismda Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, kichik biznes subyektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari, shuningdek, soha mutaxassislaridan olingan ekspert so'rovlari asosida ishlov berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida hududiy sanoat investitsiyalarining strategik roli tobora ortib bormoqda. Ayni paytda, iqtisodiy islohotlar sharoitida sanoat salohiyatini samarali boshqarish va investitsion oqimlarni hududlar kesimida oqilona taqsimlash dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyatining iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmasi va undagi investitsiya faolligi chuqur o'rganishga muhtojdir (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyati tumanlari bo'yicha sanoat investitsiyalari (2024-yil)

Tuman nomi	Yil	Sanoat investitsiyalari (mlrd so'm)	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	Sanoat loyihalari soni
Namangan shahri	2024	1450,3	118	85
Pop tumani	2024	890,6	105	60
Chortoq tumani	2024	702,1	112	45
Chust tumani	2024	611,7	109	42
To'raqo'rg'on tumani	2024	593,4	106	40

Tuman nomi	Yil	Sanoat investitsiyalari (mlrd so'm)	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	Sanoat loyihalari soni
Uychi tumani	2024	560,9	107	38
Kosonsoy tumani	2024	497,2	104	35
Norin tumani	2024	389,6	103	30
Mingbuloq tumani	2024	352,8	101	28
Yangiqo'rg'on tumani	2024	312,7	102	26
Uchqo'rg'on tumani	2024	285,1	100	25
Davlatobod tumani	2024	271,9	99	23
Namangan tumani	2024	263,3	98	20

Manba: Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi.

Namangan viloyatida sanoat investitsiyalari hududlar bo'yicha keskin tafovut bilan taqsimlanmoqda. 2024-yilda eng katta hajmdagi investitsiyalar Namangan shahriga yo'naltirilib, 1450,3 milliard so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich shaharda sanoat infratuzilmasining rivojlanganligi, xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit mavjudligi hamda ishlab chiqarish quvvatlarining kengligi bilan izohlanadi.

Pop tumani va Chortoq tumanlari 800–900 milliard so'mlik investitsiyalar hajmi bilan yuqori o'rinlarni egallagan. Ushbu hududlarda sanoat klasterlari faoliyati, tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirish imkoniyatlari va logistika yo'nalishlarining mavjudligi asosiy omillar sifatida ajralib turadi.

Investitsiya hajmi eng past bo'lgan hududlar — Davlatobod va Namangan tumanlaridir. Bu tumanlar hududiy jihatdan shaharning markaziy qismlaridan uzoqda joylashgan bo'lib, transport va energetika infratuzilmasining zaif rivojlangani investorlar uchun xavf omili sifatida baholanmoqda (2-jadval).

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari bo'yicha ichki va tashqi investitsiyalar ulushi (2024-yil)

Tuman nomi	Yil	Ichki investitsiya (%)	Tashqi investitsiya (%)
Namangan shahri	2024	58	42
Pop tumani	2024	64	36
Chortoq tumani	2024	70	30
Chust tumani	2024	66	34
To'raqo'rg'on tumani	2024	63	37
Uychi tumani	2024	62	38
Kosonsoy tumani	2024	50	50
Norin tumani	2024	78	22
Mingbuloq tumani	2024	72	28
Yangiqo'rg'on tumani	2024	69	31
Uchqo'rg'on tumani	2024	67	33
Davlatobod tumani	2024	61	39
Namangan tumani	2024	65	35

Manba: Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi.

Ichki va tashqi investitsiyalar tarkibi hududlarning global iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasini ko'rsatadi. Kosonsoy tumanida 50 foizlik mutanosiblik

kuzatilgan bo‘lib, xorijiy va mahalliy kapitalni birdek jalb etishda muvaffaqiyatga erishilgan.

Namangan shahrida esa tashqi investitsiyalar ulushi 42 % ni tashkil qilmoqda. Bu holat shaharda xalqaro moliyaviy institutlar, xorijiy korxonalar hamda IT-klasterlarning faoliyati bilan izohlanadi.

Aksincha, Norin, Mingbuloq va Chortoq tumanlarida asosan ichki resurslarga tayanilgan investitsiyalar ustunlik qiladi. Bu esa ushbu hududlarda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish faoliyatining nisbatan sust rivojlanganligini ko‘rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Namangan viloyatida tarmoqlar bo‘yicha sanoat investitsiyalari (2024-yil)

Tarmoq	Yil	Investitsiya hajmi (mlrd so‘m)	Tarmoqqa to‘g‘ri keladigan loyiha soni
Yengil sanoat	2024	1210,5	120
Oziq-ovqat sanoati	2024	890,2	98
Qurilish materiallari	2024	660,4	85
Mashinasozlik	2024	420,3	60
Farmatsevtika	2024	280,1	45

Manba: Namangan viloyati Sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi.

Investitsiyalar tarmoqlar bo‘yicha yuqori darajada konsentratsiyalashgan. Yengil sanoat 1210,5 milliard so‘mlik kapitalni jalb qilgan holda yetakchilik qilmoqda. Bu holat, asosan, tekstil klasterlarining faoliyati, tayyor kiyim-kechak eksportining ortib borishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi bilan izohlanadi.

Oziq-ovqat sanoati 890,2 milliard so‘mlik investitsiya hajmi bilan ikkinchi o‘rinni egallagan. Bu ko‘rsatkich hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar sonining ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Mashinasozlik va farmatsevtika tarmoqlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar esa nisbatan past bo‘lib, bu holat texnologik sanoat salohiyatining yetarli emasligi va malakali kadrlar tanqisligidan dalolat beradi. Mazkur tarmoqlarni rivojlantirish uchun aniq yo‘naltirilgan (targeted) dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur (4-jadval).

4-jadval

Namangan viloyatida yaratilgan yangi ish o‘rinlari (2024-yil)

Tuman nomi	Yil	Yaratilgan yangi ish o‘rinlari (ta)	Doimiy ish o‘rinlari ulushi (%)
Namangan shahri	2024	3200	70
Pop tumani	2024	2050	68
Chust tumani	2024	1600	64
Uychi tumani	2024	1350	62
Norin tumani	2024	1150	60
Davlatobod tumani	2024	930	56
Namangan tumani	2024	890	55

Manba: Namangan viloyati Bandlik bosh boshqarmasi.

Investitsiyalarning ijtimoiy samaradorligini baholovchi muhim mezonlardan biri — yaratilgan ish oʻrinlari soni va ularning barqarorlik darajasidir. Namangan shahri 3200 ta yangi ish oʻrni bilan viloyatda yetakchilik qilmoqda. Bu holat, asosan, sanoat quvvatlarining kengligi va amalga oshirilayotgan loyihalarning koʻlami bilan izohlanadi.

Pop va Chust tumanlari ham bandlik yaratishda salmoqli natijalarga erishgan. Biroq, Davlatobod va Namangan tumanlarida yangi ish oʻrinlari soni nisbatan past boʻlib, ularning barqarorlik darajasi 55–56 % atrofida saqlanmoqda. Bu esa mazkur hududlarda investitsiyalarning ijtimoiy foydasi toʻliq namoyon boʻlmayotganini koʻrsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Namangan viloyatining sanoat sohasiga yoʻnaltirilgan investitsiyalar tahlili quyidagi asosiy tendensiyalarni aniqladi:

- Hududlararo nomutanosiblik mavjud. Namangan shahri, Pop va Chortoq tumanlari investitsiyalarning asosiy qismini oʻzlashtirgan boʻlsa, Davlatobod va Namangan tumanlarida investitsion faollik past darajada qolmoqda.

- Ichki investitsiyalar ustunlik qilmoqda. Viloyatdagi aksariyat tumanlar kapital manbai sifatida ichki resurslarga tayanmoqda. Faqat Kosonsoy tumani va Namangan shahrida xorijiy investitsiyalar samarali jalb etilgan.

- Investitsiya tarmoqlari boʻyicha yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati yetakchi. Mazkur tarmoqlar eng koʻp investitsiya olgan sohaga aylangan. Mashinasozlik va farmatsevtika sohalarida esa investitsiya hajmi past boʻlib, texnologik yangilanishlar yetarli darajada joriy etilmayapti.

- Investitsiyalarning ijtimoiy samaradorligi farqlanmoqda. Yuqori investitsiya jalb qilingan tumanlarda yaratilgan ish oʻrinlari soni va ularning barqarorlik darajasi yuqori. Past investitsiya hajmiga ega hududlarda esa bu koʻrsatkichlar past darajada qolmoqda.

Takliflar:

1. Nomutanosib hududlar uchun differensial ragʻbatlantirish siyosatini joriy etish. Investitsion faolligi past boʻlgan tumanlar uchun soliq imtiyozlari, subsidiya ajratish va infratuzilma qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur.

2. “Investitsion ochiqlik reytingi”ni joriy etish. Har bir tuman investitsiyaviy jozibadorligi, mavjud imkoniyatlari va shart-sharoitlariga qarab reyting asosida baholab borilishi kerak. Bu xorijiy investorlar uchun tanlovni osonlashtiradi.

3. Texnologik tarmoqlarni rivojlantirish boʻyicha maxsus dasturlar ishlab chiqish. Farmatsevtika va mashinasozlik sohalariga yoʻnaltirilgan klasterlar va ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish zarur.

4. Investitsiya samaradorligini monitoring qilish tizimini joriy etish. Har bir yirik investitsiya loyihasi boʻyicha yaratilgan ish oʻrinlari, eksport hajmi va byudjet tushumlari boʻyicha doimiy kuzatuv olib borilishi lozim.

5. Hududlararo integratsiyani kuchaytirish. Resurslari cheklangan, ammo iqtisodiy salohiyati mavjud boʻlgan tumanlar yuqori rivojlangan tumanlar bilan kooperatsiya asosida ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
2. Harrod R.F. An Essay in Dynamic Theory. – Economic Journal, 1939.
3. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. – New York: HarperBusiness, 1985.
4. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge University Press, 1990.
5. Abdurahmonov Q.X. Investitsiya faoliyatini boshqarish asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
6. Vahobov S.S., Ziyadullayev Sh. Investitsion faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari. – “Iqtisodiyot va innovatsiyalar”, 2021, №4.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
8. Dunning J.H. The Eclectic Paradigm of International Production. – Journal of International Business Studies, 1980.
9. To'ychiyev O. Hududiy investitsiya faolligi va uni baholash uslublari. – Toshkent: Fan, 2020.
10. Tadjibayev A. Investitsiya risklari va ularni boshqarish. – “Moliyaviy tadqiqotlar”, 2022, №2.
11. Xolmırzayev U. Hududlarda davlat-xususiy sheriklik asosida bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish. – DSc dissertatsiyasi, Toshkent, 2024.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-aprel PQ-110-son qarori “Hududlarda sanoatni rivojlantirishning yangi strategiyasini joriy etish to'g'risida”gi Qarori
13. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. “2024-yil Investitsiya dasturi” statistik to'plami. Toshkent, 2024.
14. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Rasmiy axborot byulleteni, 2024-yil 1-chorak.
15. Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi. “Viloyat sanoat investitsiyalari tahlili” statistik axborot, 2024.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**